



## **XALQ DEPUTATLARI RISHTON TUMAN KENGASHI Q A R O R I**

2022 - yil 20 - oktabr

VI-44-104-11-158-K/22

Rishton tumani hokimligi

### **Yer maydonini ochiq elektron tanlovga chiqarish bo'yicha tayyorlangan loyihani ma'qqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-noyabrdagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 709-sun qarori ijrosi yuzasidan Rishton tuman hokimligi zaxirasiga olingan yer maydonlarini qishloq xo'jaligi korxonasi va dehqon xujaligi tashkil etish uchun ochiq elektron tanlovga chiqarish bo'yicha loyixalar tayyorlanib, xalq deputatlari Rishton tuman Kengashiga taqdim etilganligi hamda Kengash sessiyasida muhokama etish uchun taqdim etilgan axborot va xujjatlarni ko'rib chiqish natijalari va deputatlar tomonidan bildirilgan takliflarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Maxalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuning 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Rishton tuman Kengashi

#### **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-noyabrdagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berish tartibiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 709-sun qarori ijrosi yuzasidan Kadastr Agentligi Rishton tuman bo'limi boshlig'i R.Rustamovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi, qishloq va suv xo'jaligi bo'limi, tuman fermer dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari Kengashi hamda Kadastr Agentligi Rishton tuman bo'limi mutaxassislari tomonidan tuman hokimligi zaxirasida bo'lgan To'da MMTP xududining 260-konturidagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan 4,47 ga yer maydonida fermer xo'jaligi tashkil etish uchun ochiq elektron tanlovga chiqarish bo'yicha tayyorlagan loyixa ilovaga muvofiq maqullansin.

3. Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari A.Dehqonov va Kadastr Agentligi Rishton tuman bo‘limi boshlig‘i R.Rustamovga, ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni ochiqlik, adolatlilik va shaffoflik prinsiplari asosida tashkil etilishini ta’minlash maqsadida ommaviy axborot vositalari yordamida keng omma o‘rtasida yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini tashkil etish tuman hokimini qishloq va suv xo‘jaligi bo‘yicha o‘rnbosari N.Maxmudov, Kadastr Agentligi Rishton tuman bo‘limi boshlig‘i R.Rustamovlarga, nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.G‘ofurov)ga yuklatilsin.

**Tuman hokimi**



**С.Солиев**

Xalq deputatlari Rishton tuman  
 Kengashining  
 2022 yil 20 oktabrdagi  
 VI-44-104-11-158-K/22-son  
 qaroriga  
 1-ilova

**Fermer xo‘jaligi tashkil etish uchun ochiq elektron tanlovga chiqarish bo‘yicha  
 loyiha**

Nº	Fermer xo‘jaligi nomi	Kontur raqami	Ball boniteti	Maydoni,ga	Ekiladigan ekin turi
1	Loyiha	260	61	4.47	Sabzavot ekinlari
	<b>Jami:</b>		<b>61</b>	<b>4,47</b>	